

VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2025- yil yanvar-sentabr)

	mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	36 979 ,1	112,4	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	1 151,6	120,9	3,1
Moliyaviy xizmatlar	3 108,1	131,7	8,4
Transport xizmati	4 692,2	115,6	12,7
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	4 072,7	114,9	11,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	14 460,0	106,1	39,1
Savdo xizmatlari	7 148,2	114,8	19,3
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	539,3	109,4	1,5
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	1 224,6	102,2	3,3
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	664,1	115,8	1,8
Ijara va prokat xizmatlari	329,7	118,6	0,9
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	846,9	115,3	2,3
Boshqa shaxsiy xizmatlar	1 546,8	114,5	4,2
Me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	190,0	124,6	0,5
Boshqa turdagi xizmatlar	1 077,6	111,8	2,9

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni Yashash va ovqatlanish xizmatlari (39,1 %), savdo xizmatlari (19,3 %) transport xizmatlar (12,7 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,5 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (1,8 %) tashkil etgan.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan
xizmatlar tarkibi, (% da)**



2025- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 36 979,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 114,8 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 19,3 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 115,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 12,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 131,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 8,4 % ni tashkil etdi.


Shaxsiy xizmatlar 114,5 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 120,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar 115,8 % ga oshgan boʻlib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


2025- yil yanvar-sentabr oylarida koʻrsatilgan xizmatlar tarkibi

(jami hajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi


(2025- yil yanvar-sentabr, mlrd soʻm)



Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2025- yil yanvar- sentabr)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so'm	2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	ming so'm	2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	36 979,1	112,0	100,0	11 723,0	110,2
Namangan sh.	8 483,6	116,9	22,9	11 795,8	114,3
Mingbuloq	756,1	117,9	2,0	5 374,1	115,7
Kosonsoy	1 002,6	115,8	2,7	4 270,2	113,3
Namangan t.	1 081,5	117,1	2,9	5 443,0	114,5
Norin	891,3	115,4	2,4	4 943,6	113,4
Pop	1 224,2	113,4	3,3	5 075,5	111,5
To'raqo'rg'on	1 259,7	116,2	3,4	4 986,9	113,8
Uychi	1 138,2	113,7	3,1	4 754,3	111,3
Uchqo'rg'on	971,3	116,3	2,6	5 114,6	114,2
Chortoq	1 075,9	115,6	2,9	4 874,8	113,4
Chust	1 432,5	118,9	3,9	4 882,4	116,6
Yangiqo'rg'on	949,4	114,7	2,6	3 898,8	112,5


Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga
(2025- yil yanvar-sentabr, ming so'm)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Chust tumanida 1 432,5 mlrd so‘m (118,9 %) va Mingbuloq tumanida 756,1 mlrd so‘m (117,9 %)ga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (11 795,8 ming so‘m), Namangan tumanida (5 443,0 ming so‘m) va Mingbuloq tumanida (5 374,1 ming so‘m) qayd etildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd so‘m



Yuqori o‘shish sur‘atlari Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (120,9 %), Moliyaviy xizmatlar (131,7 %) va Ijara xizmatlar (118,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o‘rinni avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar (86,8 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 10,1 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 3,1 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2025- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 58,2 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 21,6 % ga yetdi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 20,2 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va motosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar